

**REPRODUKTIV YOSHDAGI AYOLLARDA RIVOJLANGAN
BACHADON ADENOMIOZINING MAKROMORFOLOGIK
XUSUSIYATLARI**

Shoraxmedova Navruza Shoqobul qizi

Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti mustaqil izlanuvchisi

Dolzarbligi. Adenomioz reproduktiv yoshdagi ayollar orasida eng ko'p uchraydigan gormonga bog'liq proliferativ kasalliklardan biri bo'lib, endometriy bezlari va stromasining miometriy qatlamiga kirib borishi bilan tavsiflanadi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, kasallikning uchrash chastotasi reproduktiv yoshdagi ayollarda tobora ortib bormoqda hamda bachadonni olib tashlash amaliyotlarining asosiy sabablaridan biri hisoblanadi. Kasallikning klinik namoyon bo'lishi ko'pincha dismenoreya, menorragiya, surunkali tos og'riqlari va reproduktiv funksiyaning buzilishi bilan namoyon bo'lsada, uning makromorfologik ko'rinishlari hali ham to'liq tizimlashtirilmagan. So'nggi yillarda adenomiozning patogenezigina oid molekulyar va immunogistokimyoviy tadqiqotlar soni ortib borayotgan bo'lsada, bachadonning makromorfologik o'zgarishlari, ayniqsa reproduktiv yoshdagi ayollarda uchraydigan diffuz va lokal shakllarning makroskopik tavsifi bo'yicha ma'lumotlar cheklangan. Shu sababli makromorfologik o'zgarishlarni tizimli o'rganish patologik jarayonning tarqalish darajasi, morfologik shakli hamda keyingi mikroskopik va immunogistokimyoviy tekshiruvlar uchun muhim diagnostik mezon hisoblanadi.

Tadqiqot maqsadi. Reproductive yoshdagi ayollarda rivojlangan bachadon adenomiozining makromorfologik xususiyatlarini aniqlash hamda ularning patologik jarayonning morfologik shakllari bilan o'zaro bog'liqligini baholash.

Material va usullar.

Tadqiqot ob'ekti sifatida 2020-2024-yillar davomida adenomioz tashxisi bilan operatsiya qilingan 42 nafar reproduktiv yoshdagi (23-42 yosh) ayollardan olingan bachadon preparatlari o'rganildi.

Tekshirilgan holatlar yosh guruhlariga bo'yicha quyidagicha taqsimlandi:

23-27 yosh - 9 nafar (21,4%);

28-32 yosh - 16 nafar (38,1%);

33-37 yosh - 10 nafar (23,8%);

38-42 yosh - 7 nafar (16,7%).

Makroskopik tekshiruv davomida bachadonning shakli, o'lchamlari, vazni, seroz qavatining holati, devor qalinligi, kesma yuzasining tuzilishi, miometriyning bir xilligi, kistoz o'choqlar mavjudligi hamda patologik o'zgarishlarning tarqalish darajasi kompleks baholandi.

Natijalar.

Yosh bo'yicha tahlil natijalari adenomiozning eng ko'p uchrash chastotasi 28-32 yosh guruhiga to'g'ri kelishini ko'rsatdi. Mazkur guruh umumiy kuzatilgan holatlarning 38,1 % ni tashkil etdi. Keyingi o'rinlarda 33-37 yosh guruhi (23,8%), 23-27 yosh guruhi (21,4%) va 38-42 yosh guruhi (16,7%) qayd etildi. Olingan natijalar kasallik reproduktiv faollik eng yuqori bo'lgan davrda ko'proq aniqlanishini ko'rsatadi. Makroskopik tekshiruvda bachadon aksariyat preparatlarda fiziologik ko'rsatkichlarga nisbatan diffuz kattalashganligi bilan ajralib turdi. Organning tashqi shakli ko'pincha sharsimon yoki biroz assimetrik ko'rinishda bo'lib, ayniqsa orqa devorning qalinlashishi deyarli barcha diffuz shakllarda kuzatildi. Bachadonning uzunligi 8,4-14,9 sm, kengligi 5,4-7,9 sm, old-orqa diametri 4,5-7,5 sm oralig'ida o'zgarib, preparatlar vazni 95–240 g ni tashkil etdi. Yoshi katta guruhlarda bachadon devorining qalinlashish darajasi nisbatan yaqqolroq ifodalanganligi kuzatildi. Seroz qavat aksariyat hollarda silliq, yaltiroq va uzluksiz bo'lib, uning yaxlitligi saqlangan edi. Faqat ayrim preparatlarda mayda subseroz gemorragiyalar, nuqtasimon qon quyilishlar va cheklangan fibroz maydonlari qayd etildi. Peritoneal qoplamning adgeziv o'zgarishlari kam uchradi.

Kesma yuzasida miometriy o'ziga xos geterogen va trabekulyar tuzilishga ega bo'lib, mushak tutamlarining tabiiy yo'nalishi buzilganligi makroskopik darajadayoq yaqqol ko'zga tashlandi. Miometriy qatlamida oqish-kulrang va pushti rangli tolali zonalar navbatma-navbat joylashgan bo'lib, patologik o'choqlar

atrofida mushak to'qimasining qayta tashkil topganligi kuzatildi.

Miometriy kesmasida diametri 0,1-0,5 sm bo'lgan mayda kistoz bo'shliqlar 16 holatda (38,1%) aniqlandi. Ushbu bo'shliqlarning ichida qo'ng'ir yoki to'q qizg'ish rangli suyuqlik saqlanib, ularning devorlari nisbatan qalinlashganligi kuzatildi. Mazkur o'zgarishlar takroriy intramural gemorragiyalar hamda keyingi rezorbsiya jarayonlari natijasida shakllangan eski qon quyilish o'choqlariga mos keladi. Ba'zi preparatlarda kistoz bo'shliqlar bir-biriga yaqin joylashib, miometriyda "asalari uyasi" ko'rinishini hosil qilgan. Ushbu makroskopik belgi diffuz adenomioz uchun eng xarakterli topilmalardan biri sifatida baholandi. Ayrim hollarda miometriy ichida chegarasi noaniq, kapsulasiz tugunsimon o'choqlar aniqlanib, ular atrofdagi mushak qatlamidan keskin ajralmaganligi bilan leiomiomatoz tugunlardan farq qildi. Endometriy qavati ko'pchilik preparatlarda nisbatan saqlangan bo'lsa-da, ayrim holatlarda uning notekis qalinlashishi hamda giperplastik o'zgarishlar kuzatildi. Biroq ushbu o'zgarishlar adenomiozning makroskopik belgilari orasida yetakchi o'rin egallamadi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, diffuz adenomioz 16 holatda (38,1%) aniqlanib, kuzatilgan barcha morfologik shakllar ichida eng ko'p uchraydigan variant sifatida qayd etildi.

Muhokama.

Makromorfologik tahlil shuni ko'rsatdiki, adenomiozda bachadonning kattalashishi faqat miometriyning gipertrofiyasi bilan emas, balki uning butun arxitektonikasining qayta tashkil topishi bilan ham bog'liq. Diffuz qalinlashish, mushak tutamlarining dezorganizatsiyasi, kistoz-gemorragik o'choqlarning shakllanishi hamda trabekulyar kesma yuzasi kasallikning makroskopik asosini tashkil etadi. Miometriyda aniqlangan ko'p sonli mayda kistoz bo'shliqlar va eski gemorragik o'choqlar patologik jarayonning uzoq davom etishini hamda siklik qon quyilishlarning takrorlanib turishini ko'rsatadi. Ayniqsa, "asalari uyasi" ko'rinishidagi makroskopik manzara diffuz adenomioz uchun diagnostik jihatdan muhim belgi hisoblanadi. Shuningdek, orqa devorning selektiv qalinlashishi va kapsulasiz tugunsimon o'choqlarning mavjudligi adenomiozni leiomioma va

boshqa miometriy kasalliklaridan differensial tashxislashda muhim makroskopik mezon sifatida qaralishi mumkin.

Xulosa.

Reproduktiv yoshdagi ayollarda rivojlangan bachadon adenomiozi makroskopik jihatdan bachadonning diffuz kattalashishi, sharsimon shaklga kelishi, miometriy devorining sezilarli qalinlashishi, kesma yuzasining geterogen-trabekulyar tuzilishi hamda kistoz-gemorragik o'choqlarning shakllanishi bilan tavsiflanadi. Diffuz shaklning 38.1% hollarda aniqlanishi ushbu variantning patologik jarayon ichida ustunligini ko'rsatadi. Aniqlangan makromorfologik belgilar adenomiozni boshqa proliferativ miometriy kasalliklaridan farqlashda hamda keyingi gistologik va immunogistokimyoviy tekshiruvlarni rejalashtirishda muhim diagnostik ahamiyatga ega.